



UDK: 631.6:626.8(045)

Maqsud FAYZULLAYEV,
Qarshi davlat universiteti dotsenti, g.f.f.d. (PhD)
E-mail: maqsudfayz001@gmail.com

CHDPU dotsenti g.f.f.d F.T.Rajabov taqrizi asosida

MAIN CHARACTERISTICS AND PROSPECTIVE DIRECTIONS OF AGRICULTURAL DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN

Annotation

The article describes the improvement of the scientific-methodological basis of the use of land and water resources in the country's agriculture in accordance with the market economy, the evaluation of the existing practice and the research of the factors of territorial organization of the agro-economic system, the problems caused by the development of this sector and their elimination. Inadequate use of land and water resources, innovation, modern techniques and technologies in agricultural production, these and similar problems are specific territorial characteristics in different regions of our country, the development of agriculture, its branches and territorial structure, specialization differ from one another on the scale of the republic's regions. based on complex economic geographical, systematic approach, regional analysis and generalization.

Keywords: Agriculture, land, water, food security, irrigated land, land reclamation, drip irrigation.

ОСНОВНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ И ПЕРСПЕКТИВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В статье описывается совершенствование научно-методической базы использования земельных и водных ресурсов в сельском хозяйстве страны в соответствии с условиями рыночной экономики, оценка существующей практики и исследование факторов территориальной организации агроэкономической системы, проблемы, вызванные развитием этого сектора и их устранение. Недостаточное использование земельных и водных ресурсов, инновации, современная техника и технологии в сельскохозяйственном производстве, эти и подобные им проблемы имеют специфические территориальные особенности в разных регионах нашей страны, развитие сельского хозяйства, его отраслей и территориальной структуры, специализации отличаются друг от друга по масштабы регионов республики. на основе комплексного экономико-географического, системного подхода, регионального анализа и обобщения.

Ключевые слова: Сельское хозяйство, земля, вода, продовольственная безопасность, орошаемые земли, мелиорация, капельное орошение.

O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGI RIVOJLANISHINING ASOSIY XUSUSIYATLARI VA ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI

Annotatsiya

Maqolada mamlakat qishloq xo'jaligida yer-suv resurslaridan foydalanishning bozor iqtisodiyotiga mos keladigan ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, mavjud amaliyotni baholash va agroiqtisodiy tizimning hududiy tashkil etish omillarini tadqiq qilish, ushbu tarmoq rivojlanishi yuzaga kelgan muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar bayon qilingan. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida yer-suv resurslaridan, innovatsiya, zamonaviy texnika va texnologiyalardan yetarli darajada foydalanilmaslik, shu va shunga o'xshash muammolar mamlakatimiz turli mintaqalarida o'ziga xos hududiy xususiyatlari, qishloq xo'jaligining rivojlanishi, uning tarmoqlar va hududiy tarkibi, ixtisoslashuvi respublika mintaqalari miqyosida bir-biridan farq qilishi majmual iqtisodiy geografik, tizimli yondashuv, hududiy tahlil va umumlashtirishga asoslangan holda keng yoritib berilgan.

Kalit so'zlari: Qishloq xo'jaligi, yer, suv, oziq-ovqat xavfsizligi, sug'oriladigan yer, meliorativ holat, tomchilatib sug'orish.

Kirish. Jahon aholisining ko'payishi bilan qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning o'sib borishi qishloq xo'jaligi tarmoqlari rivojlanishi va hududiy tashkil etilishini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. «2050-yilga borib jahon aholisini 9 milliarddan oshishi, urbanizatsiya darajasining tez sur'atlarda o'sishi va aholining 70 foizi shaharlarda to'planishi (hozirda 49 foiz) kutilayotgan bir paytda, dunyo aholisini boqish uchun global darajada qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni ikki barobarga oshirish kerak bo'ladi».

Mamlakat milliy iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi tarmog'i rivojlanishining o'ziga xos imkoniyatlari mavjud bo'lib, sohani intensiv rivojlantirish xususida respublika Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev «Bugungi kuchli raqobat sharoitida qishloq xo'jaligi tizimida ham yangicha yondashuv, innovatsiyalar va ilg'or ishlanmalarni, intensiv va resurs tejaydigan texnologiyalarni izchil tatbiq etishni zamonning o'zi taqozo qilmoqda. Keyingi paytda butun dunyoda bo'lgani kabi mintaqamizda ham yuz berayotgan iqlim o'zgarishlari, suv resurslarining tobora taqchil bo'lib borayotgani, ekologik muammolar sohada ilm-fan va ishlab chiqarish uyg'unligini ta'minlash naqadar dolzarb ekanini ko'rsatmoqda. Ana shu omillarni hisobga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi sohada islohotlarni yanada chuqurlashtirish va innovatsion texnologiyalarni qo'llash, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholiga sifatli mahsulotlar yetkazib berish, eksport geografiyasini kengaytirishdek ustuvor masalalarda dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda» deb, ta'kidlagan.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida yer-suv resurslaridan, innovatsiya, zamonaviy texnika va texnologiyalardan yetarli darajada foydalanilmaslik, shu va shunga o'xshash muammolar mamlakatimiz turli mintaqalarida o'ziga xos hududiy xususiyatlarga ega bo'lib, bu borada ham geografik yondashuv talab etiladi. Qishloq xo'jaligining rivojlanishi, uning tarmoqlar va hududiy tarkibi, ixtisoslashuvi respublika mintaqalari miqyosida bir-biridan farq qiladi. Jumladan, mamlakat qishloq xo'jaligida yer-suv resurslaridan foydalanishning bozor iqtisodiyotiga mos keladigan ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, mavjud amaliyotni baholash va agroiqtsodiy tizimning hududiy tashkil etish omillarini tadqiq qilish, ushbu tarmoq rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarini belgilash katta ahamiyat kasb etadi, bu esa majmuali iqtisodiy geografik, tizimli yondashuv, hududiy tahlil va umumlashtirishga asoslangan mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilab beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Qishloq xo'jaligini hududiy tashkil etishning nazariy va umumiy metodologik masalalari ilmiy adabiyotlarda yaxshi yoritilgan. Iqtisodiy geografik tadqiqotlarda (Z.M.Akramov, V.G.Kryuchkov, K.I.Ivanov, K.I.Lapkin, A.M.Nosonov, V.A.Pulyarkin, A.N.Rakitnikov, A.N.Ro'ziev, Y.I.Ahmadaliev, Y.K.Umarov va b.) qishloq xo'jaligining hududiy jihatlarini aks ettirilgan [2].

Bozor iqtisodiyotidan kelib chiqib, ilmiy ishlarda (S.Ch.Djalalov, T.Jumaev, A.N.Nigmatov, E.F.Trushin, A.Ro'ziev, Q.Allanov, B.Kalonov, R.Usmonov, A.Xolmirzaev, K.Xidraliev, M.Fayzullaev, F.Rajabov, J.Namozov) yer-suv resurslaridan foydalanish, qishloq xo'jaligini hududiy tashkil etishning zamon talablariga javob beruvchi jihatlariga ko'proq e'tibor qaratilgan [3]. Bu borada yer-suv muammosi keskin hisoblangan mintaqalar ham ma'lum darajada tadqiq qilingan.

Adabiyotlarni tahlil qilish davomida shu narsa aniqlandiki, yuqoridagi tadqiqotlarning ko'pchiligida qishloq xo'jaligi rivojlanishi bilan bog'liq muammolar va ularni bartaraf etishning ustuvor yo'nalishlari hududlarning iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitidan kelib chiqqan holda iqtisodiy, ijtimoiy, geoeologik va geosiyosiy jihatdan tadqiq qilinmagan. Shuning O'zbekistonda qishloq xo'jaligi rivojlanishining iqtisodiy-geografik xususiyatlari, yuzaga kelgan iqtisodiy-ijtimoiy muammolar, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda alohida o'ringa ega bo'lgan tarmoqni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash maqsad qilib olingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mamlakat hududi arid mintaqada joylashganligi sababli, dehqonchilik asosan sun'iy sug'orish yordamida amalga oshiriladi. Lekin keyingi yillari sug'orish suvi taqsimotini cheklanganlik sharoitiga o'tishi ham sug'oriladigan qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanish samaradorligiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Shu sababli ham yerlardan (ayniqsa sug'oriladigan) foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish, ularni va umuman atrof muxitning ekologik holatini muhofaza qilish bugungi bozor sharoitida asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Qishloq xo'jaligining xududiy tashkil etilishi jamiyat ishlab chiqarish kuchlarini ishlab chiqarish tarixiy rivojlanish jarayoni bilan uzviy bog'langan. Jamiyatning rivojlanishi va ilmiy texnik taraqqiyotining darajasiga qarab qishloq xo'jaligi tizimi va uning xududiy tashkil etish yo'nalishlari o'zgarib boradi. Masalan, jamiyat taraqqiyoti va mehnat taqsimotining chuqurlashishi natijasida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi sodda va betartib tizimdan, mehnat kooperatsiyasi va integratsiyasi asosida hududiy jihatdan oddiy guruhlar, tarmoq va tarmoqlararo majmualarni tashkil etadi.

Sanoatda bo'lganidek, qishloq xo'jaligi tarmoqlarini joylashtirish va ixtisoslashtirishda ham eng asosiy omil bozor munosabatlari sanaladi. Qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvini hozirgi kunda bozor, narx-navo belgilaydi, ammo bu ta'sir qishloq xo'jaligida ma'lum vaqt o'tgandan so'ng o'z kuchini ko'rsatadi (chunki, mahsulot yetishtirish uchun ancha vaqt talab etiladi, sanoatda esa bu jarayon nisbatan tez kechadi).

Bozor iqtisodiyoti sharoitida innovatsiya ta'sirida mehnat taqsimotining chuqurlashuvi va integratsiya jarayonlarining kengayishi jamiyat rivojlanishining eng yuqori pog'onalariga xosdir. Bu jarayon, eng avvalo, ijtimoiy ishlab chiqarishning rivojlanishi va umumlashishida, ya'ni ixtisoslashuvning chuqurlashishi, mujassamlashuvning o'sishi, kooperatsiya va kombinatlashtirish shakllarining kengayishida o'z ifodasini topadi. Tarmoqlararo va hududiy ishlab chiqarish majmualarining vujudga kelishi ushbu jarayonning natijasi hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi hududiy ishlab chiqarish majmualari yoki tizimlari asosida turli tarmoqlarning hududiy uyg'unlashuvi, masalan, dehqonchilik va chorvachilikning o'zaro joylashuvi, o'z navbatida dehqonchilikning ichki tarmoqlarini bir-biriga yaqin joylashuvi yotadi.


Tahlil va natijalar. Respublikada oziq-ovqat mahsulotlarining 91 foizdan ortiq qismi sug'oriladigan yerlarda yetishtiriladi. Ammo respublikamiz transchegaraviy suv oqimlari quyi qismida joylashganligi, shuningdek, mamlakatda foydalaniluvchi suv resurslarining faqatgina 20,0 foizi o'zimizda, qolgan 80,0 foizi qo'shni davlatlarda shakllanishini hisobga olsak, istiqbolda qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orish uchun suv ta'minoti masalasi murakkablashishi mumkin. Ma'lumotlarga ko'ra, 2040-yilga borib, Amudaryo va Sirdaryodagi suv oqimlari o'zgarmagan taqdirda respublikamizda suv taqchilligi 15 foizni, suv oqimi kamaygan taqdirda esa 33 foizni tashkil etishi mumkin.

Respublikada qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan strategiyaning mavjud emasligi sohaga investitsiyalarni keng jalb etishga, ishlab chiqaruvchilarning yuqori daromad olishiga, mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga yer-suv resurslaridan samarali foydalanishga to'sqinlik qilib kelayotgan edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrda PF-5853-sonli Farmoni bilan "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan Strategiyasi"ni qabul qilinishi bu borada tashlangan muhim qadam bo'ldi. Mazkur Strategiyada belgilanganidek oziq-ovqat xavfsizligi keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va ekologik omillarga bog'liq. Aholi sonining o'sishi, yer, suv va energiya resurslariga bo'lgan talabning ortishi, iqlimning keskin o'zgarishi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga ta'sir etuvchi asosiy omillardir.

So'nggi yillarda mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash bo'yicha bir qator choralar amalga oshirilishi natijasida O'zbekiston dunyoda egallagan o'rini mustahkamlashga erishdi va bosqichma-bosqich global reytinglarda o'z mavqei yaxshilab oldi. O'zbekiston Respublikasi 2018-yilda Global ochlik indeksi bo'yicha 119 mamlakat orasida 52-o'rinni egallab, 12,1 ko'rsatkich bilan "mo'tadil" darajaga erishdi. Mamlakat aholisining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalasi birinchi navbatda qishloq xo'jaligi yerlari va ekin maydonlaridan samarali foydalanishga bog'liq. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan 20,2 mln gektar yerlarning atigi 20,7 foizi sug'oriladigan yerlar hisoblanadi. So'nggi 15 yil mobaynida aholi jon boshiga sug'oriladigan yerlar 24 foizga (0,23 dan 0,16 gektargacha) kamaygan. Mazkur holat aholi sonining o'sishi, suv ta'minoti hajmining qisqarishi va qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning boshqa yer fondi toifalariga o'tishi natijasida yuzaga kelgan. Prognozlarga ko'ra, kelgusi 30 yil mobaynida sug'oriladigan yer maydonlari yana 20-25 foizga qisqarishi mumkin [9].

Respublikada suv resurslaridan samarali foydalanish va sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash maqsadida tomchilatib sug'orishni keng qamrovli joriy etish maqsadga muvofiq. Sug'orishning zamonaviy va suvni tejovchi texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan maqsadli davlat dasturlarini amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, respublika bo'yicha sabzavot va polizlarni tomchilatib sug'orishda suv sarfi 50-55, mehnat sarfi 50-60, mineral o'g'itlar sarfi 50 foizgacha qisqaradi va hosildorlik 55-65 foizgacha oshadi. Bundan tashqari: tuproq eroziyasi to'xtaydi, yer osti sizot suvi sathi pasayadi va yerlarning sho'rlanishi kamayadi; tuproq qotmaydi, qator oralarini kultivatsiya qilish va egat olish ishlari kamayadi; o'g'it suv bilan berilib, uni o'zlashtirilish darajasi ortadi; tuproqdan suv kam bug'lanadi, suvning behuda oqib ketmasligiga erishiladi; ekinlarning ildiz qatlami namlik bilan doimiy ta'minlanib, suv va oziq moddalarni olishiga imkoniyat yaratiladi. Bu holda o'simlik o'z energiyasini to'laligicha hosilni ko'paytirishga yo'naltiradi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakat qishloq xo'jaligida chuqur islohotlarni amalga oshirish davri boshlandi. Bu davrni qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish bosqichi sifatida baholashimiz mumkin. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari, xususan, o'sha davrda asosiy valyuta rurslari, respublika uchun hayotiy zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari, texnika va texnologiya uskunalarini import qilishni asosiy manbasi edi. Aynan shu yillarda g'alla yetishtirishga – don mustaqilligiga alohida e'tibor berila boshlandi va bu vazifa paxta yakkahokimligini cheklash hisobidan amalga oshirildi. Masalan, mamlakat g'alla ekin maydonlari 1990 yildan 2020 yilgacha 433,2 ming gektardan 1546,2 ming gektargacha yoki deyarli 4 marta ko'paydi, hosildorlik 12,8 s/ga dan 41,8 s/ga gacha ortdi (rasm), yalpi hosil 553,5 ming tonnadan 6545,3 ming tonnagacha oshdi.



O'zbekiston Respublikasida paxta va g'alla ekinlari hosildorligi (s/ga)

Rasm O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

G'alla ekin maydonlari yangi o'zlashtirilgan hududlar sug'oriladigan paxta maydonlari evaziga ko'paytirildi va yuqori hosildorlikka erishildi. 1991-2020-yillarda paxta bilan band ekin maydonlari respublikada 1721,0 ming gektardan 1342,5 ming gektargacha, bunga mos holda yetishtirilgan paxta xom ashyosi 4646,3 ming tonnadan 3442,3 ming tonnaga kamaydi. Tahlil qilinayotgan yillarda yem-xashak ekinlari maydoni hisobiga g'alla maydonlari kengaytirilganligi va paxta maydonlarining u darajada kamayib ketmaganligini ham ko'rishimiz mumkin. Shu davrda chorva yaylovlarining qishloq xo'jaligi yerlar tarkibidan chiqib ketishi, sug'oriladigan yerlarda yem-xashak ekinlari maydoni keskin qisqarganligi chorvachilik tarmog'ini rivojlantirish uchun bir qancha muammolarni keltirib chiqardi. Chunonchi, 1991-yilda respublikadagi barcha yaylovlarining 92 foizi qishloq xo'jaligi tasarrufida edi; chorva mollarning ko'p va tizimsiz boqilishi, yaylovlar mahsuldorligi kamayib ketganligi va yaylovlarining qayta tiklanmayotganligi bois, ularning maydoni 40 foizga kamayib ketdi. Yaroqsiz bo'lgan yaylovlarining bir qismi zahira yerlar toifasi, yana bir qismi o'rmon fondiga o'tkazildi. Mamlakat chorvachiligi qariyb 13 mln gektar yaylov yerlarga ega, ularning aksariyati Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Qashqadaryo va Navoiy viloyatlarida joylashgan bo'lib, chorva mollarning (qo'ylar) asosiy qismi shu yerlarda boqiladi. Respublikada chorvachilik mahsuldorligi bo'yicha Toshkent, Navoiy va Xorazm viloyatlari peshqadam hisoblanadi. Yalpi ko'rsatkichlar haqida so'z borganda, go'sht yetishtirishda Samarqand, Xorazm, Qashqadaryo, Buxoro, sut yetishtirishda Samarqand, Xorazm, Qashqadaryo, tuxum tayyorlashda Toshkent, Samarqand, Xorazm va Andijon, jun tayyorlashda Qashqadaryo, Samarqand, Navoiy, Buxoro va Jizzax viloyatlari yetakchi hisoblanadi.

Yaqin 30 yil mobaynida Yer shari aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga to'xtovsiz o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirishni ta'minlashda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar qatoriga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni ko'paytirishning asosiy yo'nalishi sifatida quyidagilarni ta'kidlab o'tish mumkin:

- Yangi yer maydonlarini o'zlashtirish va ishga tushirish hisobidan ekin maydonlarini yanada kengaytirish imkoniyatlarining mavjud emasligi;

- Qishloq xo'jaligida tuproq unumdorligi pasayishi qonuning amal qilishi natijasida keyingi qo'shilgan qiymatga hosildorlikning tobora kamayib borishi;

- Global isishning salbiy oqibatlari va ularning iqlim va ob-havo o'zgarishlariga kuchli ta'siri;

- Ekin maydonlarni va chorva mollarni sug'orishga yaroqli presslangan toza suv zaxiralarining geometrik progressiyada kamayib borayotganligi va suv tanqisligi muammolari yanada kuchayishining muqarrarlari va boshqalar.

O'zbekiston milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning uzoq muddatlarga mo'ljallangan strategiyasini, uning sohalar va tarmoqlar bo'yicha tarkibiy tuzilishini shakllantirishda kelajakda mamlakat aholisining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda yuzaga chiqishi muqarrar bo'lgan muammolarni hisobga olgan holda yondashish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki aynan qishloq xo'jaligi sohasida ulkan salohiyatga ega bo'lgan O'zbekiston kelajakda oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha xalqaro mehnat taqsimotida asosiy o'rinni egallashi uchun barcha imkoniyatlardan foydalanish strategiyasiga ega [12].

Jahonda uch sektorli iqtisodiyot nazariyasiga muvofiq taraqqiyotning industrial bosqichidan postindustrial bosqichiga o'tish jarayoni shiddat bilan kechmoqda. O'zbekistonda yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat va mamlakat milliy iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlari aynan agrar sektorni tez sur'atlar rivojlantirishni, uni istiqbolda iqtisodiy yuksalishning yetakchi omiliga aylantirishni taqazo etadi. Ushbu nuqtai nazar hozirgi kunda iqtisodiyot ilmi olamida hukmronlik qilayotgan va

dunyoning deyarli barcha mamlakatlari amaliyotda qo'llayotgan uch sektorli iqtisodiyot nazariyasining tamoyillariga tamoman zid. Chunki unga muvofiq, postindustrial jamiyatda iqtisodiyotda bandlarning 10 foizi qishloq xo'jaligida, 20 foizi sanoatda, 70 foizi xizmatlar sohasida band bo'lishi kerak. Hozirgi kunda O'zbekiston iqtisodiyotida bandlarning ulushi mos tarzda 26,2 %, 33,3 % va 50.5 foizni tashkil qiladi, shunday bo'lsada, milliy xususiyatlarga ega O'zbekiston sharoitida aynan qishloq xo'jaligini strategik sektor sifatida qarash juda katta samara berishi mumkin. Bu jihat jahon andozasiga qanchalik to'g'ri kelishidan qat'iy nazar, mamlakat uchun iqtisodiy taraqqiyotda erishilgan pirovard natija muhim.

Xulosa va takliflar. Arid iqlim muhitida joylashgan O'zbekiston sharoitida, ya'ni tabiiy bug'lanish yuqori bo'lgan vaziyatda yer osti sho'r suvlarining intensiv bug'lanishi tuproqda tuzlar to'planib, yerlarni sho'rlanishiga olib keladi. Bunda, ayniqsa, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini barqaror holatda saqlash muhim muammo hisoblanadi. Chunki, yerlarning meliorativ holatini yaxshilamasdan, sho'rlanishga qarshi chora ko'rmasdan turib ekinlardan yuqori hosil olib bo'lmaydi. O'zbekiston sug'oriladigan yerlarining meliorativ holatini qoniqarli darajada baholansa-da, bu borada, xususan sug'oriladigan maydonlarda ayrim hal qilinmagan masalalar mavjud. Bunday hududlarga yer-suv resurslaridan qishloq xo'jaligida foydalanish asosida yuzaga kelgan o'ziga xos geoeologik muammolarni bartaraf etish uchun amaliy dasturlarni ishlab chiqish talab etiladi.

Har bir qishloq tumanida byudjet mablag'lari hisobidan jahon amaliyotining ilg'or tajribalariga tayanib ish tutadigan namunaviy xo'jaliklar tashkil etilishi lozim. Taklif etilayotgan xo'jaliklar zamonaviy texnika va texnologiya bilan jihozlangan, innovatsion texnologiyalarni qo'llashga tayyor, yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlangan, mahsulot hosildorligini va yerning unumdorligini jahon andozalari darajasiga ko'tarishga qodir, salohiyati yuqori zamonaviy ishlab chiqarish korxonalari sifatida boshqa xo'jaliklardan ajralib turishi lozim. Bundan tashqari namunaviy xo'jaliklar hududlarning tabiiy-iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlariga ixtisoslashtirish, qayta ishlash hamda xizmat ko'rsatish tarmoqlarini tizimli joylashtirish maqsadga muvofiq. Ushbu xo'jaliklar nafaqat sifatli va qiymati arzon mahsulot ishlab chiqarish orqali tumandagi fermer va dehqon xo'jaliklariga namuna ko'rsatishlari, balki ularga amaliy yordam ko'rsatishni o'z zimmasiga olishlari kerak. Boshqacha qilib aytganda, namunaviy xo'jaliklar tuman bo'yicha dehqonchilik va chorvachilikning samarali rivojlantirishning muhim bo'g'iniga aylanishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Қишлоқ хўжалиги ва озиқ-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқариш – энг долзарб масала. 10-апрель 2020-й. www.president.uz/uz/lists/view/3493.
2. Аҳмадалиев Ю.И. Ер ресурсларидан фойдаланиш геоекологияси. – Т: Fan va texnologiya, 2014. – 340-б.
3. Намозов Ж.А. Самарқанд вилояти ер-сув ресурсларидан оқилон фойдаланишнинг иқтисодий географик жиҳатлари. Геог. фан. фалс. докт. ... дис. автореф. – Т., 2021. – 45-б.
4. Ражабов Ф.Т. Фермер хўжалиқларининг ихтисослашуви ва ҳудудий таркибини такомиллаштири (Қашқадарё вилояти мисолида). Геог. фан. фалс. докт. ... дис. автореф. – Т., 2017. – 42-б.
5. Салиев А.А., Файзуллаев М.А. Социально-экономическое развитие Республики Узбекистан за годы независимости. – Социально-экономическая география: Вестник ассоциации Российских географов-обществоведов. №2. Ростов-на-Дону, 2013. – 131-143 с.
6. Салиев А.А., Файзуллаев М.А. Формирование природно-хозяйственных систем Каршинской степи. – Проблемы освоение пустынь. №1-2. Ашхабад, 2010 г. – 10-13 с.
7. Файзуллаев М.А. Историко-географические аспекты освоения новых земель сельскохозяйственного назначения (на примере Узбекистана). - Электронное научно-практическое периодическое издание. Экономика и социум. №3 (94), 2022. – 908-914 с.
8. Файзуллаев М.А. Қишлоқ хўжалигини иқтисодий географик жиҳатдан районлаштириш масалалари.- Central asian research journal for interdisciplinary studies (carjis). Volume 2 | issue 1 | 2022. – P. 328-333.
9. Navotova D.I. Theoretical and methodological aspects of resources of land resources in agriculture. - Academia: An International Multidisciplinary Research Journal. November, 2022. – P. 40-44.
10. Faizullaev M.A Main characteristics of the formation of a geographic conveyor in agricultural development. - Web of Scientist: International Scientific Research Journal. Vol. 4 No. 2 (2023). P. 89-92.
11. Faizullaev M.A. Theoretical and methodological aspects of the economic geographical study of agriculture and the use of land and water resources. Eurasian Journal of History, Geography and Economics. Volume 16, Belgium, 2023. – P. 39-42
12. Faizullaev M.A. Factors of intensive development of agriculture in ensuring food security. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. Vol. 4 No. 1 (2023). P. 715-719.